


# KASB-HUNAR TA'LIMI

ILMIY-USLUBIY, AMALIY, MA'RIFIY JURNAL

2024, 11-son



# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal

2024-yil, 11-son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar  
Pedagogik innovatsiyalar, professional  
ta'limboshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: Z.Y.XUDAYBERDIYEV

Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

M.XOLMUXAMEDOV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R XODJABAYEV,  
J.SH.SHOSALIMOV, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlari  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dessertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Manzil: 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy

Tel.: 90-979-75-89; 94-677-90-32;

E-mail: kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

Nashr uchun mas'ul  
H.Sirojiddinov

Sahifalovchi:  
I.Sirojiddinov

Tahririyat fikri mualif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 30.12.2024-yil.

Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.

Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

Холмухamedov M.M. Milliy malakalar tizimining kasbyi ta'limim va kasbga ukitsi tizimini modernizatsiya kilişdagi ahamiyati .....	3
Obidova G.K. Texnika ta'limgazalar o'rnatishda ekologik madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari .....	7
Abdurazaqova F.K. Farg'ona vodiysi jadidchi ma'rifatparvarlarining milliy-ma'naviy, pedagogik-ijtimoiy omillari .....	11
Raxmonova D.N. Umumta'limgaz maktablarini boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqa savodxonligi asosida o'qitishning pedagogik muammo sifatida .....	14
Jo'rayev M.K. Talabalarda valeologik madaniyatni kompleks yondashuv asosida rivojlantirish - ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida .....	18
Musratova Z.U. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limgaz tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog e'tiborga olishi kerak bo'lgan omillar .....	20
Teshaboyev D.R., Jo'raqo'ziyeva D.H. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqidagi morfologik xatolar ustida samarali ishslash prinsplari .....	24
Холикулова Н.Т. Rol' interaktivnykh metodov obucheniya v prepodavaniye meditsinskoye terminologii pervodursnikam .....	28
Atayeva B.A. Inklyuziv ta'limgaz bolalar hayotiga ta'siri va unda o'qituvchining o'rni .....	34
Totliyev O.X. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish (umumta'limgaz fanlari asosida) .....	37
Qambarova D.M. 10-11-sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini oshirishning zamonaviy usullari .....	41
Boymurodov A.X., Sobirova M.D. Suv xo'jaligi va melioratsiya yo'naliishi talabalariga fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanan afzalliklari .....	47
Kimsanov J.M. Ta'limgaz muassalarida jismoniy sport va sog'lomlashtirish tadbirlerining samaradorligini oshirish .....	54
Samadova M.X. Neft va gaz sanoatida texnik - mexanik xodimlarning kasbiy kompetensiyalarini olyi ta'limgaz muassasasida shakllantirish va rivojlantirish .....	57
Ibodova N.M., Elamonova D.S., Burxonova D.B. Inklyuziv ta'limgaz faoliyatida o'qituvchi duch keladigan muammolar va yechimlar .....	61
Abdullaeva M.O. Zamonaviy yondashuvlar asosida hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish istiqbollari .....	66
Elmonov S.M. O'quvchilarining fanlarga qiziqishini tizimli tashkil etishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi .....	71
Mustafoyeva M.O. Bo'lajak mutuxassislarini kasbiy tayyorlash jarayonida individual ta'limgaz trvektoriyasini qurish tamoyillari .....	75
Жаббарова Д.З. Individuallar endashuv asosida maktab y'kvchilarining badijiy ijodkorligini rivojlantaniishiha psixologik xususiyatlari .....	82
Zoxidova M.T. Shaxs intellektining funksional yondashuv asosida pedagog mahoratin oshirishdagi o'rni .....	86
Abdullaeva L.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorlarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	89
Abdullaeva G.A. Boshlang'ich sinflarda epik asarlar ustida ishslash darslarini tashkil qilish metodikasi .....	93
Teshaboeva F.R. Ona sog'ligi bola salomatligi garovidir .....	97
Yunisaliyeva Y. Pedagogik jamoaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	100
Siddikov B.S. O'quvchilarida aksioligik kompetensiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar .....	104
Ergasheva D.A. Sun'iy intellektning mazmun mohiyati .....	108
Maxmudov S.U. Kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashuviga tasir etuvchi omillar .....	114
Xakimov X.N. Bo'lajak chet tili o'quvchisining lingvomultimedia kompetensiyasini shakllantirish .....	119
Muxammadiyev L.G'. O'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning pedagogik tadqiqotlarda o'rganilishi .....	123
Yakubjonova M.I., Muhammadjonova Sh.I. Masala yechish jarayonida o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish .....	127
Kurbanov O.E. Tarix mutaxassisligi magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish tendensiyalari .....	132

# O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'ULARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISHI

**MUXAMMADIYEV LOCHIN G`AYRATOVICH**  
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti Katta o`qituvchisi**

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va uni takomillashtirishga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlili o'rganilgan. Vatanparvarlik tushunchasining mohiyati, vatanparvarlik aksiomasiiga oid pedagogik tadqiqotlar takomiliga oid davrlashtirish masalalari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** aksioma, arxaik retrospektiva, insonparvarlik tuyg'ulari, komil inson, qadriyat, vatanparvar shaxs, kompetensiya, milliy birlik, ijtimoiy rivojlanganlik tuyg'usi.

**Abstract:** The article examines an analysis of research conducted on the formation and improvement of patriotic feelings in students. The essence of the concept of patriotism, the issues of periodization related to the improvement of pedagogical research on the axiom of patriotism, have been studied.

**Keywords:** axiom, archaic retrospective, feelings of humanity, a perfect person, a value, a patriotic personality, competence, national unity, a sense of social development.

**Аннотация:** В статье изучен анализ проведенных исследований по формированию и совершенствованию чувства патриотизма у учащихся. Исследованы сущность понятия патриотизма, вопросы периодизации, связанные с совершенствованием педагогических исследований аксиомы патриотизма.

**Ключевые слова:** аксиома, архаическая ретроспектива, чувства гуманизма, совершенный человек, ценность, патриотическая личность, компетенция, национальное единство, чувство социального развития.

Bugungi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarayotgan, mintaqalar va davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashlar tobora keskinlashayotgan bir sharoitda mamlakatimiz yoshlarini, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarda yon-atrofimiz va dunyoda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdid va xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy va modernizatsiyalashgan ta'lif sharoitidan

samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash zarurati alohida ta'kidlab kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz manfaatlarini nafaqat iqtisodiy, siyosiy, harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt ravnaqi, jamiyat rivoji uchun jondan kechishga ham tayyor, sodiq va fidoyi bo'lish bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish muhim ahamiyatga ega masala bo'lib bormoqda.

Jahoning yetakchi davlatlarida yoshlarning vatanparvarlik kompetensiyasi bo'yicha davlat dasturlari, konsepsiyalari va maxsus qarorlari qabul qilingan. Yoshlarning aksiologik tarbiyalanganlik borasidagi

kompetensiyalari bilan shug‘ullanuvchi va davlat tarafidan ijtimoiy, moliyaviy yordam beriluvchi juda ko‘plab jamoatchilik asosidagi faxriylar tashkilotlari va boshqa muassasalarining vujudga kelishi maktab o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik masalasi mamlakatimizda ham, xorijda ham ko‘plab tadqiqotlar predmeti sifatida o‘rganilmoqda. Buyuk faylasuf, pedagog, psixolog olimlar, yozuvchilar qadim zamonlardan boshlab, hozirgi vaqtgacha mazkur muammoga alohida e’tibor qaratib kelishmoqda.

Vatanparvarlik barcha tarixiy zamon va makon uchun o‘ziga xos xususiyat hisoblanadi. Mamlakatning taraqqiy etishi, mavjud tizim va jarayonlarning to‘xtovsiz o‘zgarishi natijasida vatanparvarlik tushunchasi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Pedagogik tadqiqotlardagi vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini anglash uchun har bir mamlakatning tarixiy jihatdan tashkil topishi, mustahkamlanib borishi, uning hududiy va milliy mustaqilligi uchun kurashi bilan bog‘liq arxaik retrospektivasidan xabardor bo‘lishi lozim. Shuning uchun ham vatanparvarlik sifati ming yillar davomida shakllangan yuksak insoniy hissiyot hisoblanadi[7].

Vatanga bo‘lgan muhabbat har bir kishida o‘z kindik qoni to‘kilgan maskaniga, voyaga yetgan joyiga, eng yaqin kishilari: ota-ona, aka-uka, opa-singillariga bo‘lgan munosabatida aks etadi. U shunday tushunchaki, inson ong-u tafakkurida hech qachon o‘zgargan emas va bu tushuncha tuyg‘usi ona suti bilan kirib, vafotida tark etadi. Ma’naviy kamolga yetgan kishilarga o‘rnakka munosib jamiyat qura olishi mumkin. Shu jihatdan yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash masalasiga har kungidanda e’tibor berilmoqda. Mamlakat nomini yangratish, uning obro‘sini yuksaltirish va

mustahkamlashda yoshlarda vatanparvarlik to‘g‘risidagi milliy urf-odatlarning pedagogik tizimini shakllantirish zarur. Zero, azaldan amal qilib kelayotgan vatan va vatanparvarlik tuyg‘ulari ma’naviyatimiz, ma’rifiy hamda axloqiy madaniyatimizning negizi hisoblanadi.

Ushbu yo‘nalishda xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi shundan dalolat beradiki, turli mamlakatlarda vatanparvar, barkamol avlodni tarbiyalash, turli tajovuzkor tahdidlarga chidam bilan bardosh beradigan yoshlarga xos xususiyatlarni shakllantirishga doir tadqiqotlar bugungi G‘arb dunyosining yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, AQShdag‘i V.Vilson xalqaro tadqiqot markazi (Woodrow Wilson International center for scholars, Washington), Yel universiteti, Garvard, Kolumbiya universitetlari, Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabi (SOAS, Angliya), Gumbold universitetining Yevropa etnologiyasi instituti (Germaniya), Fransiyadagi Sarbonna universiteti, Institute of Central Asia (Fransiya), Parij Ijtimoiy fanlar Oliy maktabi (EHESS, Fransiya), Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, Falsafa hamda Sotsiologiya institutlari (Rossiya) va boshqa shu kabi ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Nafaqat Osiyo va Sharq ilm-fani, balki butun jahonning yetakchi ilmiy markazlari va OTMlari qatoriga kiruvchi Institute of Academy for study of the modern international relations Europe and Asia (Xitoy), Tokio universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika madaniyati va tilini o‘rganish tadqiqot instituti (Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa at the Tokyo University of Foreign Studies), Asian Strategy and Leadership Institute (Malayziya) bilan birga, Janubiy Koreyadagi Osiyo madaniyatini tadqiq etish instituti (Asia

Culture Research Institute, Hindistondagi J.Neru universiteti Markaziy Osiyoni tadqiq etish xalqaro munosabatlar markazi (Central Asian Studies, School of International Studies, Jawaharlal Nehru University) kabilarda olib borilayotgan izlanishlarda ham biz tahlil qilayotgan mavzuga doir qimmatli natijalarga erishilgan[1].

Dunyo sivilizatsiyasida olimlar dastlab ijodlarini ona Vatanlariga bag'ishlaganlar: nemis faylasufi G.Gegel shunday yozgan edi: Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. Jan Jak Russo o'zining falsafiy pedagogik asarlarida Vatanni quyidagicha kuylagan edi: "Saxovatning eng buyuk jasurliklari Vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi".

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. "Alpomish", "To'maris" kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lrim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiatni, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xusravning "Saodatnoma", "Ro'shnoyinoma", Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk", Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarları odob-axloqqa bevosita daxlordir[2].

Muqaddas Hadisi shariflarda bejizga "Vatanni sevmoq iymondandir" [3] deya ta'kidlanmagan. Vatanni sevish – vatanparvar bo'lish demak. Vatan ma'naviyat va

madaniyat, fan, adabiyot va san'at o'chog'i bo'lgani uchun ham undan ulug'roq ne'mat, boylik va maskan yo'q. Iymon va diyonatdan gap ketganda, har bir kishining ko'z o'ngida avvalo, tarix gavdalananadi. Iymonni, axloq va ma'rifatni tiklamay turib, kelajagi buyuk davlat qurib bo'lmaydi.

Ilmiy-pedagogik tadqiqotlardan ma'lumki, tarix darslarida milliy qahramon obrazlari vositasida o'quvchilarining vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish bo'yicha ilmiy jihatdan alohida o'rganilmagan. Vaholanki, Vatan timsoli, uning ravnaqi yo'lida beminnat xizmat qilish, shu asosda komil shaxsni tarbiyalash har bir davr adabiyoti, metodikasining kun tartibiga qo'yilgan masalasi edi. Xususan, har bir davr adabiyoti, pedagogikasining g'oyaviy negizi ham Vatanga, yurt ravnaqiga o'z jonini tikib bo'lsa-da, xizmat qilishga qaratilgani bilan belgilanardi. Ilmiy-pedagogik manbalar tahlili badiiy qahramon obrazlari vositasida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish alohida tadqiqot muammozi sifatida o'rganilmaganligini ko'rsatdi.

Ilmiy adabiyotlarda "Vatanparvarlik" tushunchasiga har jihatdan ta'riflangan bo'lsa-da, ularning barchasini xalqiga, milliy va diniy qadriyat, an'analariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat bilan qarash hamda uni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shish, uning haqiqiy jonkuyari bo'lish g'oyasi va amaliyoti birlashtirib turadi. Xususan, ushbu tushuncha "Filosofiya lug'ati"da quyidagicha ta'riflanadi: "Vatanparvarlik (grek. patris – vatan) – axloqiy va siyosiy prinsip, sotsial his-tuyg'u; bu his-tuyg'uning mazmuni – vatanga mehr-muhabbat bog'lash, unga sodiq bo'lishdan, uning o'tmishi va hoziri uchun faxlanishdan, vatan manfaatlarini himoya qilishga intilishdan iborat. Tarixan vatanparvarlik elementlari tug'ilgan yerga,

tilga, an'analariga mehr qo'yish shaklida qadim zamondayoq shakllanadi[4].

O'quvchilardavatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish pedagogik tadqiqotlarda muhim o'rin tutadi. Vatanparvarlik o'quvchilarning milliy g'ururini oshirish, tarixiy xotirani

saqlash va milliy an'analarga hurmat ko'rsatish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish uchun samarali usullarni aniqlashga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdunosirova X.E. Yoshlarda tahdidbardoshlikni shakllantirish: tahlil va talqin dialektikasi. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2021 yil. 113 – bet.
2. Mavlonova R. A., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika: kasb-hunar kollejlari uchun darslik. O'zR olyi va o'rta-maxsus ta'lrim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. 6-nashri. – T.: "O'qituvchi", 2013. 6-bet.
3. Bu haqida qarang: <https://qadriyat.uz/savol/1450>
4. Filosofiya lug'ati. – Toshkent.: O'zbekiston. 1976, 84-bet.
5. G'uzarov O'. "Vatanparvarlik – muqaddas burch". [www.xojabuxoriy.uz](http://xojabuxoriy.uz) portal. 07.01.2021. Batafsil qarang: <https://xojabuxoriy.uz/?p=222&lang=uz>
6. Nazarov va b. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati"- Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022. 610-bet.
7. Зарипов М., Абдураҳмонова З. Ватанпарварлик миллий бирлик туйғуси сифатида. - Т.: ТДПУ, 2002. -22 б